

## Yashasun Turkiston Muxtoriyati!

Ey ulug‘ Turkiston, ey turklik beshigi, arslonlar o‘lkasi! Shod ul, saning u shavkatli zamonlaring, ulug‘liq nishonlaring qaytmoqdadir. Turk o‘g‘ullarining tovushlari yuksalmakdadir. Turkiston Muxtoriyatining muqaddas bayroqlari saning fazoyi jon baxshilik orasinda ko‘tarilmakdadir.

Ey Turkiston turklari, ey islom millati, voqif va hozir bo‘linglarkim: baxt eshigi ochildi, iqbol quyoshi tug‘ildi. Saodat chog‘i yetdi, ya’ni Turkiston Muxtoriyati e’lon qilindi. Na bu eng sharaf, na ulug‘ saodat har kim: elli yildan beri yuraklarda soqlab yurdig‘imiz buyuk va muqaddas bir tilagimiz bu kun xosil bo‘ldi.

*Bar in mujda gar jon fishonam ravost,*

*Ke in mujda osoyishi joni most<sup>1</sup>.*

Shul kundan e’tibora boshlarimizdan asorot pardasi ko‘tarildi. Bo‘yinlarimizdan qulliq zanjirlari uzuldi. Turkiston Muxtoriyati bu buyuk bir masalani xal qildi; o‘z vazifasini o‘z xidmatini yeriga keturdi. Emdi butun Turkiston xalqig‘a navbat keldi, emdi turk ahlining fidokorlik zamoni keldi.

Ey muhtaram qardoshlar! Oldingizda buyuk bir ish, ulug‘ bir xidmat qoldi. Muxtoriyat: ahamiyatli bir omonatdir; Muxtoriyat Turkiston uchun ulug‘ bir saodatdir. Unga kerak bo‘lg‘on as’hob ko‘bdir, uni o‘rnig‘a keturmak uchun lozim bo‘laturg‘on fidokorliqlar buyukdir. Himmat kerak, g‘ayrat va matonat kerakdir. Butun millat afrodingning bir “tani vohid” kibi harakat qilmoqlari farzdir.

Muxtoriyat uchun milliy askar, milliy xazina kerakdir. Ushbu ikki narsa mavjud bo‘lsa ishlar buyuk bir muvaffaqiyat bilan olday borur. Turkiston Muxtoriyati tugal ma’nosi bilan maydong‘a chiqar.

Milliy xazina: millat qopchug‘indan chiqg‘uvlidir. Milliy qo‘shin millat yigitlaridan bo‘lg‘ulidir. Unutmaylukkim: biz, o‘tgan zamonlarda yer yuzini titratgan qahramonlarning bolalari erurmiz. Otarimiz arslondek boturlar bo‘lub, vatan va millat yo‘lida hech bir tahlikadan, hech bir balodan yuz o‘g‘irmay edilar. Biz ham unlarning haqli avlodi esak, jonu molimizni oyamasdan muxtoriyat yo‘linda tirisha buyuk g‘ayrat, g‘ayratkim bu muxtoriyat qo‘lidan ketarsa: Turkiston uchun saodat mumkin bo‘lmas.

**Muallim. M. N. G.**

**“Hurriyat” gazetasi. 1918 yil 2 g‘anvar.**

---

<sup>1</sup> Bu xush xabar uchun agar jonimni qurbon qilsam arzir, Negaki bu xushxabar bu jonimizning xotirjamligidir.